



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI



Urakova Maxsad Xakimovna
Buxoro davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası dotsenti
ORCID: 0000-0002-4917-8657

Annotatsiya. Mazkur maqolada Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ya'ni MHXS (IFRS) asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlardan korxona rentabelligi va to'lovga qobiliyatligini baholashda foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Korxona moliyaviy holatini baholashda faqat rentabellik va likvidlik koeffitsiyentlari bilan cheklanib qolish yetarli emasligi asoslangan. Xususan, IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9, IAS 36 va IAS 7 talablarining qo'llanishi korxona moliyaviy ko'rsatkichlari mazmuniga bevosita ta'sir qilishi aniqlangan. Maqolada moliyaviy hisobot sifati, rentabellik, likvidlik va operatsion pul oqimlarini birlashtiruvchi kompleks tahlil modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: MHXS, IFRS, moliyaviy hisobot, iqtisodiy tahlil, rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, likvidlik, pul oqimlari, moliyaviy barqarorlik, IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of using financial statements prepared in accordance with International Financial Reporting Standards, namely IFRS, to assess an enterprise's profitability and solvency. It is substantiated that assessing the financial position of an enterprise cannot be limited only to profitability and liquidity ratios. In particular, it is identified that the application of IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9, IAS 36, and IAS 7 directly affects the content of an enterprise's financial indicators. The article proposes a comprehensive analytical model that integrates the quality of financial reporting, profitability, liquidity, and operating cash flows.

Keywords: IFRS, financial reporting, economic analysis, profitability, solvency, liquidity, cash flows, financial stability, IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методические основы использования финансовой отчетности, составленной на основе Международных стандартов финансовой отчетности, то есть МСФО (IFRS), при оценке рентабельности и платежеспособности предприятия. Обосновано, что при оценке финансового состояния предприятия недостаточно ограничиваться только коэффициентами рентабельности и ликвидности. В частности, установлено, что применение требований IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9, IAS 36 и IAS 7 оказывает непосредственное влияние на содержание финансовых показателей предприятия. В статье предложена комплексная модель анализа, объединяющая качество финансовой отчетности, рентабельность, ликвидность и операционные денежные потоки.

Ключевые слова: МСФО, IFRS, финансовая отчетность, экономический анализ, рентабельность, платежеспособность, ликвидность, денежные потоки, финансовая устойчивость, IFRS 15, IFRS 16, IFRS 9.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, kapital bozorlarining rivojlanishi va investitsiyaviy qarorlar sifatiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi korxonalar moliyaviy hisobotining shaffofligi hamda taqqoslanuvchanligini ta'minlashni muhim vazifaga aylantirmoqda. Bunday sharoitda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan hisobotlar investorlar, kreditorlar, mulkdorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida korxonalar moliyaviy holatini xalqaro talablar asosida aks ettirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilashga qaratilgan. MHXSning asosiy afzalligi shundaki, u xo'jalik operatsiyalarini faqat yuridik shakliga ko'ra emas, balki ularning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib tan olish va baholashga imkon beradi [1].

Korxona faoliyatining natijadorligini baholashda rentabellik va to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlari alohida ahamiyatga ega. Rentabellik korxonaning foyda yaratish qobiliyatini ifodalasa, to'lovga qobiliyatlilik korxonaning joriy va uzoq muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini tavsiflaydi. Biroq ushbu ko'rsatkichlarni baholashda faqat formula bo'yicha olingan natija bilan cheklanish ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki MHXS asosida daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni tan olish tartibi an'anaviy hisob tizimidan farq qilishi mumkin.

Masalan, IFRS 15 bo'yicha tushum pul kelib tushgan vaqtda emas, balki korxona shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajargan paytda tan olinadi. IFRS 16 esa uzoq muddatli ijara shartnomalari bo'yicha foydalanish huquqi aktivini hamda ijara majburiyatini balansda aks ettirishni talab qiladi. IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlari bo'yicha xazira yaratiladi. IAS 36 talablariga ko'ra esa aktivlar qadrsizlanishi o'z vaqtida tan olinishi lozim [3–7].

Tadqiqotning maqsadi MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari yordamida korxona rentabelligi va to'lovga qobiliyatlilikini baholash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- MHXS talablarining moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash;
- rentabellik va to'lovga qobiliyatlilikning asosiy ko'rsatkichlarini tizimlashtirish;
- moliyaviy koeffitsiyentlarni pul oqimlari bilan bog'liq holda tahlil qilish;
- korxona moliyaviy holatini kompleks baholash modelini ishlab chiqish;
- moliyaviy tahlil sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqot obyekti — MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati.

Tadqiqot predmeti — MHXS asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari yordamida korxona rentabelligi va to'lovga qobiliyatlilikini tahlil qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda MHXSni joriy etish moliyaviy hisobot sifati, investitsiyaviy muhit va korxonalarning bozor bahosiga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi. Daske va hammualliflar MHXSni majburiy qo'llash korxonalar hisobotining shaffofligini oshirishi hamda kapital bozoridagi axborot nomutanosibligini kamaytirishi mumkinligini asoslaganlar [10].

Barth, Landsman va Lang tadqiqotlarida xalqaro standartlarni qo'llayotgan korxonalarda hisobot ma'lumotlarining iqtisodiy mazmuni kuchliroq aks etishi ta'kidlangan [11]. Biroq MHXSga o'tish korxonaning iqtisodiy holatini avtomatik tarzda yaxshilamaydi. U, avvalo, korxona faoliyatining aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar orqali haqqoniyroq aks ettirilishiga xizmat qiladi.

MHXS asosidagi moliyaviy tahlilda asosiy masala koeffitsiyentlarni hisoblash emas, balki ularning shakllanish omillarini to'g'ri izohlashdir. Masalan, IFRS 16 qo'llanilgach, korxonaning majburiyatlari ko'payadi. Bu qarz yuklamasi oshganini ko'rsatishi mumkin, ammo bu holat har doim ham korxona moliyaviy riskining real ortganini anglatmaydi. Chunki ilgari balansdan tashqarida aks ettirilgan ijara majburiyatlari endi balansda ochiq ko'rsatiladi.

Demak, zamonaviy moliyaviy tahlilning asosiy vazifasi hisobot ko'rsatkichlaridagi o'zgarishni faqat matematik nisbat sifatida emas, balki MHXS talablaridan kelib chiqadigan iqtisodiy mazmun bilan birga o'rganishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. MHXS talablari mazmunini o'rganishda qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usuli, moliyaviy natijalar dinamikasini baholashda gorizont va vertikal tahlil, korxonaning moliyaviy holatini aniqlashda koeffitsiyentlar usuli qo'llanildi.



Rentabellik omillarini aniqlashda DuPont modeli, to'lovga qobiliyatlilikni baholashda esa joriy likvidlik, tezkor likvidlik, mutlaq likvidlik, qarz yuklamasi va operatsion pul oqimi ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida MHXS standartlari, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, moliyaviy tahlil bo'yicha ilmiy manbalar va korxonalarning auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlari uchun belgilangan umumiy talablar xizmat qildi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Moliyaviy hisobot sifati baholanadi.

Korxonada MHXS talablariga muvofiq daromadlar, aktivlar, majburiyatlar va pul oqimlari to'g'ri tan olingani aniqlanadi.

2. Rentabellik va likvidlik koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Sof foyda, tushum, aktivlar, xususiy kapital, joriy aktivlar va majburiyatlar asosida asosiy ko'rsatkichlar aniqlanadi.

3. Koeffitsiyentlar pul oqimlari bilan taqqoslanadi.

Sof foyda va operatsion faoliyatdan kelgan pul oqimi o'rtasidagi bog'liqlik tekshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

MHXS standartlarining moliyaviy tahlilga ta'siri

MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holatini chuqurroq baholashga imkon beradi. Bunda har bir standart ma'lum ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi.

1-jadval
MHXS standartlarining rentabellik va to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlariga ta'siri¹

Standart	Asosiy talab	Qaysi ko'rsatkichga ta'sir qiladi?	Tahliliy xulosa
IFRS 15	Tushum shartnoma majburiyati bajarilganda tan olinadi	Tushum, sotuvlar rentabelligi, debitorlik qarzlari	Tushumning pul tushumi bilan mosligi tekshiriladi
IFRS 16	Ijara aktivi va ijara majburiyati balansda aks ettiriladi	Aktivlar, majburiyatlar, qarz yuklamasi, ROA	Qarzdorlik oshishining sabablari tahlil qilinadi
IFRS 9	Kutilayotgan kredit yo'qotishlari bo'yicha zaxira yaratiladi	Sof foyda, debitorlik qarzlari, tezkor likvidlilik	Debitorlik qarzining haqiqiy undiriluvchanligi baholanadi
IAS 36	Aktiv qadrsizlanishi aniqlansa, zarar tan olinadi	Sof foyda, aktivlar, ROA, ROE	Past rentabellik bir martalik qadrsizlanish natijasi bo'lishi mumkin
IAS 2	Zaxiralar tannarx va sof sotish qiymatining eng past bo'yicha baholanadi	Zaxiralar, tezkor likvidlilik, foyda	Zaxiralarning sotilish ehtimoli va qiymati o'rganiladi
IAS 7	Pul oqimlari operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga ajratib ko'rsatiladi	To'lovga qobiliyatlilik, pul oqimi, qarzni qoplash	Sof foyda real pul oqimi bilan tekshiriladi

Rentabellik ko'rsatkichlari formulalari

Quyidagi formulalarda belgilar bir xil ma'noda qo'llaniladi:

- Sof foyda — barcha xarajatlar va soliqlar chegirilgandan keyin qolgan foyda;
- Sof tushum — mahsulot, ish yoki xizmatlarni sotishdan olingan sof daromad;
- O'rtacha jami aktivlar — yil boshidagi va yil oxiridagi jami aktivlarning o'rtacha summasi;
- O'rtacha xususiy kapital — yil boshidagi va yil oxiridagi xususiy kapitalning o'rtacha summasi;
- Operatsion foyda — korxonaning asosiy faoliyatidan olingan foyda.

1. Sof foyda marjasi

Sof foyda marjasi = Sof foyda / Sof tushum × 100

Mazmuni: korxona 100 so'mlik mahsulot yoki xizmat sotganida necha so'm sof foyda olayotganini ko'rsatadi.

Masalan, sof foyda marjasi 12 foiz bo'lsa, korxona har 100 so'm tushumdan 12 so'm sof foyda olgan bo'ladi.

2. Aktivlar rentabelligi — ROA

ROA = Sof foyda / O'rtacha jami aktivlar × 100

¹ Manba: muallif tomonidan MSFO standartlari asosida tuzilgan.



– O'rtacha jami aktivlar quyidagicha aniqlanadi:

– O'rtacha jami aktivlar = Yil boshidagi jami aktivlar + Yil oxiridagi jami aktivlar

Mazmuni: korxonadagi barcha aktivlar — bino, uskuna, pul mablag'i, zaxira va debitorlik qarzlar — qanchalik foyda keltirayotganini bildiradi.

Masalan, ROA 8 foiz bo'lsa, korxona 100 so'mlik aktivlardan 8 so'm sof foyda olgan bo'ladi.

3. Xususiy kapital rentabelligi — ROE

ROE = Sof foyda / O'rtacha xususiy kapital × 100

O'rtacha xususiy kapital quyidagicha aniqlanadi:

O'rtacha xususiy kapital = Yil boshidagi xususiy kapital + Yil oxiridagi xususiy kapital

Mazmuni: korxona egalari kiritgan 100 so'mlik kapital qancha sof foyda keltirganini ko'rsatadi.

Masalan, ROE 20 foiz bo'lsa, mulkdorlar kapitalining har 100 so'mi 20 so'm sof foyda yaratgan.

2-jadval

Korxona moliyaviy holatini baholash uchun asosiy formulalar²

Ko'rsatkich	Formula	Ko'rsatkich nimani bildiradi?
Sof foyda marjasi	Sof foyda / Sof tushum × 100	Har 100 so'm tushumdan olinadigan sof foyda
ROA	Sof foyda / O'rtacha jami aktivlar × 100	Aktivlardan foydalanish samaradorligi
ROE	Sof foyda / O'rtacha xususiy kapital × 100	Mulkdorlar kapitalining foydaliligi
ROS	Operatsion foyda / Sof tushum × 100	Asosiy faoliyat rentabelligi
Joriy likvidlik	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	Qisqa muddatli qarzni qoplash imkoniyati
Tezkor likvidlik	(Joriy aktivlar – Zaxiralalar) / Joriy majburiyatlar	Zaxiralarsiz qarzni qoplash imkoniyati
Mutlaq likvidlik	Pul mablag'lari / Joriy majburiyatlar	Mavjud pul bilan qarzni qoplash imkoniyati
Qarzdorlik koeffitsienti	Jami majburiyatlar / Jami aktivlar	Aktivlarning qarz hisobidan moliyalashtirilgan ulushi
Qarz / xususiy kapital	Jami majburiyatlar / Xususiy kapital	Korxonaning moliyaviy leveraj darajasi
Operatsion pul oqimi likvidligi	Operatsion pul oqimi / Joriy majburiyatlar	Asosiy faoliyatdan tushgan pul bilan qarzni qoplash qobiliyati

Rentabellikni MHXS asosida tahlil qilish

MHXS asosida tuzilgan hisobotlarda rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishda aktivlar va majburiyatlarning baholanishi alohida ahamiyatga ega. Xususan, IFRS 16 natijasida foydalanish huquqi aktivi balansga olinadi. Bu jami aktivlarni ko'paytirishi mumkin. Natijada ROA ko'rsatkichining pasayishi har doim ham faoliyat samaradorligi yomonlashganini anglatmaydi.

IFRS 9 bo'yicha kutilayotgan kredit yo'qotishlari zaxirasi yaratilganda sof foyda qisqarishi mumkin. Biroq bu holat korxona moliyaviy natijasini sun'iy pasaytirish emas, balki undirilishi shubhali debitorlik qarzlarini hisobga olish orqali realroq moliyaviy holatni aks ettirishdir.

IAS 36 bo'yicha aktivlar qadrsizlanishi tan olinsa, korxona sof foydasi va aktivlar qiymati kamayadi. Shunday holatda ROA va ROE pasayishi mumkin. Ammo tahlilchi bu pasayishni ikki qismga ajratib baholashi kerak:

korxona asosiy faoliyati samaradorligining pasayishi;

aktivlar qadrsizlanishi tufayli yuzaga kelgan bir martalik xarajat.

Bu ajratish korxona faoliyatining kelgusi davrlardagi rentabelligini to'g'ri prognoz qilish uchun zarur.

To'lovga qobiliyatlikni MHXS asosida tahlil qilish

Korxona to'lovga qobiliyatligini baholashda faqat balansdagi joriy aktivlar va joriy majburiyatlar nisbatiga tayanish to'liq xulosa bera olmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, joriy aktivlar tarkibidagi debitorlik qarzlar yoki zaxiralarning tezda pulga aylanishi har doim ham kafolatlanmaydi.

IFRS 9 bo'yicha debitorlik qarzlar uchun kutilayotgan kredit yo'qotishlari zaxirasi yaratilishi ushbu qarzlarining real undiriluvchanligini yanada haqqoniy baholash imkonini beradi. Shu bois tezkor likvidlik koeffitsiyenti hisoblanganda debitorlik qarzlarining sifatiga e'tibor berish zarur.

IAS 7 bo'yicha pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxona to'lovga qobiliyatligini baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi. Operatsion faoliyatdan muntazam pul oqimi kelib turishi korxonaning qarzlarini uzluksiz qoplash imkoniyatini oshiradi.

² Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Tahlil bosqichi	Tahlil qilinadigan ko'rsatkichlar	Asosiy savol
1-bosqich	Joriy va tezkor likvidlilik	Korxona qisqa muddatli majburiyatlarini qoplay oladimi?
2-bosqich	Debitorlik qarzlari, zaxiralar, IFRS 9 zaxiralari	Joriy aktivlar haqiqatan ham tez pulga aylanishi mumkinmi?
3-bosqich	Operatsion pul oqimi likvidligi	Korxona asosiy faoliyatidan yetarli pul oqimini shakllantira olyaptimi?
4-bosqich	Qarzdorlik va qarz/xususiy kapital nisbati	Korxona qarz mablag'lariga qanchalik bog'liq?
5-bosqich	Foiz xarajatlarini qoplash darajasi	Korxona foizli qarzlarga xizmat ko'rsata oladimi?

Moliyaviy holatni kompleks baholash modeli

Tadqiqot natijasida korxona moliyaviy holatini baholashning quyidagi modeli tavsiya etiladi:

Birinchi yo'nalish — moliyaviy hisobot sifati

Bu yo'nalishda korxona hisob siyosati, moliyaviy hisobotga berilgan izohlar, debitorlik qarzlari bo'yicha zaxiralar, ijara majburiyatlari va aktivlar qadrsizlanishi tahlil qilinadi.

Ikkinchi yo'nalish — rentabellik

Bu yo'nalishda sof foyda marjasi, ROA, ROE va ROS ko'rsatkichlari baholanadi. Ko'rsatkichlar kamida uch yil bo'yicha dinamikada hisoblanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi yo'nalish — to'lovga qobiliyatlilik

Bu yo'nalishda joriy, tezkor va mutlaq likvidlik koeffitsiyentlari, qarzdorlik darajasi hamda qarz va xususiy kapital nisbati aniqlanadi.

To'rtinchi yo'nalish — pul oqimlari

Bu yo'nalishda sof foyda va operatsion pul oqimi o'rtasidagi bog'liqlik, operatsion pul oqimining joriy majburiyatlarni qoplash darajasi va korxonaning pul yaratish qobiliyati baholanadi.

Mazkur to'rt yo'nalish birgalikda qo'llanilganda, korxona moliyaviy holati bo'yicha ancha ishonchli xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot tahlilchiga korxonaning moliyaviy holatini chuqurroq baholash imkonini beradi. Biroq koeffitsiyentlar o'zgarishini hisob siyosati va standartlar talablaridan ajratib talqin qilish yetarlicha asoslanmagan xulosaga olib kelishi mumkin.

IFRS 15 bo'yicha tushumning tan olinishi natijasida sotuvlar rentabelligi oshishi mumkin, ammo ushbu o'sish real pul tushumlari bilan tasdiqlanmasa, korxonaning haqiqiy to'lovga qobiliyatligi pasaygan bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli sotuvlar rentabelligi, debitorlik qarzlari aylanuvchanligi va operatsion pul oqimlari birgalikda tahlil qilinishi lozim.

IFRS 16 natijasida ijara majburiyatlari balansda aks ettirilishi qarz yuklamasi va moliyaviy leverajning oshishiga olib keladi. Biroq bu har doim ham qo'shimcha kredit jalb qilinganini anglatmaydi. Bu, avvalo, korxonaning ilgari balansdan tashqarida turgan majburiyatlari shaffoflashganini ko'rsatadi.

IFRS 18 2027-yildan boshlab IAS 1 o'rnini egallaydi va moliyaviy natijalarni taqdim etish hamda oshkor etish talablarini yangilaydi. Shu bois korxonalar moliyaviy tahlil shakllarini, xususan, foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobot bo'yicha tahliliy tasniflarni oldindan moslashtirib borishlari lozim [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot korxona rentabelligi va to'lovga qobiliyatligini haqqoniy, shaffof va taqqoslanuvchan baholash imkonini beradi.

2. Rentabellik tahlilida sof foyda marjasi, ROA, ROE va ROS ko'rsatkichlari asosiy o'rin tutadi. Biroq ularni baholashda IFRS 15 bo'yicha tushumni tan olish, IFRS 16 bo'yicha ijara majburiyatlari, IFRS 9 bo'yicha kredit yo'qotishlari va IAS 36 bo'yicha aktivlar qadrsizlanishi ta'sirini hisobga olish zarur.

3. To'lovga qobiliyatlilikni baholashda joriy, tezkor va mutlaq likvidlik koeffitsiyentlari muhim bo'lsa-da, ular operatsion pul oqimi bilan tasdiqlanishi kerak.

³ Manba: muallif ishlanmasi.



4. Sof foyda va operatsion pul oqimi o'rtasidagi nisbat korxona foydasining sifatini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Sof foydaning ortishi, lekin operatsion pul oqimining pasayishi korxonada debitorlik qarzlari yoki zaxiralar bilan bog'liq nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatishi mumkin.

5. Korxonalar moliyaviy tahlilda kamida uch yillik ko'rsatkichlardan foydalanishlari, gorizontal va vertikal tahlilni koeffitsiyentlar hamda pul oqimlari tahlili bilan birlashtirishlari lozim.

6. Tahlil jarayonida IFRS 16 bo'yicha tan olingan ijara majburiyatlarini foizli kreditlardan alohida baholash tavsiya etiladi. Bu korxonaning real qarz yuklamasini aniqlashga yordam beradi.

7. MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlaydigan korxonalar moliyaviy hisobotga beriladigan izohlarda debitorlik qarzlari, zaxiralar, ijara majburiyatlari, aktivlar qadrsizlanishi va pul oqimlari bo'yicha batafsil ma'lumotlarni ochib berishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018.
3. IFRS Foundation. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers. London: IFRS Foundation.
4. IFRS Foundation. IFRS 16 Leases. London: IFRS Foundation.
5. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation.
6. IFRS Foundation. IAS 36 Impairment of Assets. London: IFRS Foundation.
7. IFRS Foundation. IAS 7 Statement of Cash Flows. London: IFRS Foundation.
8. IFRS Foundation. IAS 2 Inventories. London: IFRS Foundation.
9. IFRS Foundation. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. London: IFRS Foundation, 2024.
10. Daske H., Hail L., Leuz C., Verdi R. Mandatory IFRS Reporting around the World: Early Evidence on the Economic Consequences. Journal of Accounting Research. 2008. Vol. 46, No. 5. Pp. 1085–1142.
11. Barth M. E., Landsman W. R., Lang M. H. International Accounting Standards and Accounting Quality. Journal of Accounting Research. 2008. Vol. 46, No. 3. Pp. 467–498.
12. Penman S. H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. 5th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2013.
13. White G. I., Sondhi A. C., Fried D. The Analysis and Use of Financial Statements. 3rd ed. New York: John Wiley & Sons, 2003.
14. Palepu K. G., Healy P. M., Peek E. Business Analysis and Valuation: IFRS Edition. 5th ed. Andover: Cengage Learning, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>